

MUSTAQILLIK YILLARIDA SURXONDARYO VILOYATIDA MADANIY VA MA'NAVIY HAYOTNING YUKSALISHI

Tursunov Anvar Saypullayevich,

**Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrası dotsenti vazifasini bajaruvchi,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

Annotatsiya: Mustaqillikning dastlabki yillarida Surxondaryo viloyatida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, madaniy va ilmiy markazlar jahon andozalariga mos holda tashkil etilib, umumta'lim maktablari jahon ta'lim tizimi asosida qayta tashkil etilib, mavjud maktablar zamonaviy ta'mirlanib, qayta jihozlandi, milliy, ma'naviy, millatlararo do'stlik an'alariga asoslangan ta'lim tizimi shakllandi, maktablar ta'minoti zamonaviy o'quv-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda ancha hayrli ishlar olib bordi.

Kalit so'zlar: Surxondaryo viloyati, umumta'lim maktablari, madaniy va ma'naviy hayot, "Shalola» ashula va raqs xalq ansambli", Arxeologiya muzeyi, «Alpomish» sport majmuasi, sport maydonlari, teatr.

РОСТ КУЛЬТУРНОЙ И ДУХОВНОЙ ЖИЗНИ В СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Турсунов Анвар Сайпуллаевич,

и.о. доцента кафедры всеобщей истории Термезского государственного университета, доктор философии по истории (PhD)

Аннотация: В результате реформ, проведенных в Сурхандарьинской области в первые годы независимости, были созданы культурные и научные центры в соответствии с мировыми стандартами, общеобразовательные школы реорганизованы на основе мировой системы образования, модернизированы действующие школы. и переоснащенная, национальная, ма Сформировалась система образования, основанная на традициях духовной и межнациональной дружбы, школы были оснащены современными учебно-методическими, духовно-воспитательными направлениями.

Ключевые слова: Сурхандарьинская область, общеобразовательные школы, культурно-духовная жизнь, народный ансамбль песни и танца «Шалола», Археологический музей, спортивный комплекс «Алпомиш», спортивные площадки, театр.

THE GROWTH OF CULTURAL AND SPIRITUAL LIFE IN SURKHANDARYA REGION IN THE YEARS OF INDEPENDENCE

Tursunov Anvar Saypullayevich,

Acting associate professor of the World History Department of Termiz State University, Doctor of Philosophy in History (PhD)

Abstract: As a result of the reforms carried out in the Surkhandarya region in the early years of independence, cultural and scientific centers were established in accordance with world standards, secondary schools were reorganized on the basis of the world education system, existing schools were modernized and re-equipped, national, ma An educational system based on the traditions of spiritual and inter-ethnic friendship was formed, schools were equipped with modern educational-methodical, spiritual-educational lines.

Keywords: Surkhondarya region, secondary schools, cultural and spiritual life, "Shalola" folk ensemble of song and dance, Archaeological Museum, "Alpomish" sports complex, sports fields, theater.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillardanoq madaniy–ma'rifiy sohaga alohida e'tibor berib, xalqning or-nomusi va qadr- qimmatini himoya qilish, xalqning boy tarixi va madaniyatini, ko'p asrlik an'analari,urf-odatlarini hamda ma'naviy qadriyatlarini tiklash borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Jamiyat rivoji, shahar madaniyatining ravnaqi, shubhasiz, bevosita malakali mutaxassislar va ularning amalga oshiradigan ishlari bilan bog'liqdir. Malakali mutaxassislarni tayyorlashda esa ta'lim tizimining o'rni va ahamiyati kattadir. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, istiqlolni mustahkamlovchi kuchli va qat'iyatli mutaxassislar tayyorlash masalasi kun tartibiga qo'yildi. Yoshlarga hozirgi zamon jahon andozalari asosida ilg'or bilimlarini berish, ularni davr talabiga mos mutaxassis qilib tarbiyalashda izchil ishlar olib borildi. Natijada madaniy hayotning asosini tashkil etuvchi xalq ta'limiga jiddiy e'tibor berildi, zarur moddiy mablag'lar safarbar qilindi, maktablarni moddiy-texnik jihozlash

hamda mutaxassislar tayyorlash uchun muhim islohotlar amalga oshirildi. Mustaqillikka erishilgach, ta'lim-tarbiya sohasiga alohida e'tibor berildi, ta'lim islohoti va uning istiqbolli tamoyillari belgilab olindi. Ta'lim tizimining uzluksizligi, izchilligi, ilmiyligi va dunyoviyligi ta'minlandi. Ta'limda, umuminsoniy va milliy madaniy-ma'naviy qadriyatlarning ustuvorligi yuzaga keldi, millati, e'tiqodi, dinidan qat'i nazar, barcha fuqarolar uchun ta'lim olish imkoniyatlari yaratildi.

Shu bois shaharlarda ta'lim-tarbiya maskanlarining salohiyati oshib, ularning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Buning uchun yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish sohasi tubdan yangi yondashuvlar jalb qilindi, maktabgacha tarbiyada keskin burilishga erishish zarurligi, iste'dodli bolalar uchun maktab-internatlar tashkil qilish, bolalar bog'chalari, bolalar poliklinikalarini ko'paytirish, sport maydonlar va boshqa xalq ta'limi bilan bog'liq ob'ektlarni ko'paytirish va zamonaviy holga keltirish, o'quv-tarbiya jarayonlarni yaxshilash zudlik bilan amalga oshirish dolzarb masala darajasiga ko'tarildi. Chunki, sovet davriga xos muammolardan biri maktablarda sinf xonalar va o'quv darsliklar hamda zarur o'quv jihozlarining yetishmasligi tufayli, ta'lim muassasalarini ikki-uch smenada o'qish holatlari mavjud edi. Masalan, 1991-yil Qumqo'rg'on shahrida 1102, Sherobod shaharida 750, Sho'rchi shaharida 390 o'quvchi 2 smenada o'qimoqda edi[14.41]. 1991 o'quv-yilida Termiz, Denov, Sherobod, Jarqo'rg'on, Sho'rchi shaharlarida 12 ta umumiy ta'lim maktabi va 6 ta maktabgacha tarbiya muassasalari kapital ta'mirlashga muhtoj edi[15.33].

Shaharlarda maktabgacha tarbiya muassasalarini zamonaviy uslubda jihozlash, yangi o'quv-uslubiy jihozlar bilan ta'minlash, pedagog-mutaxassislarning bilim saviyasini oshirish, ularni o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlash borasida, 1995-yilda muhim ishlar amalga oshirildi. Natijada, shaharlarda maktabgacha tarbiya muassasalariga e'tibor kuchaytirildi. 1995-yil Boysunda 8 ta muassasada 1032 nafar, Jarqo'rg'onida 10 ta muassasada 1154 nafar, Qumqo'rg'onida 8 ta muassasada 776 nafar, Sherobodda 12 ta muassasada 2718 nafar, Sho'rchida 13 muassasada 3302 nafar, Termizda 13 ta muassasada 6818 nafar, Denovda 11 ta muassasada 2710 nafar bola tarbiyalandi[20.18]. 1993-yildan 1996-yilga qadar shahar miqyosida mavjud 11300 o'rinli 13 ta maktab qayta ta'minlanib, maktablar qoshida esa 450 o'rinli qo'shimcha sinfxonalar qurildi[2.20].

Termiz, Denov, Boysun, Sherobod, Sho'rchi, Sharg'un, Qumqo'rg'on, Jarqo'rg'on, Kakaydi shaharlaridagi maktabgacha ta'lim muassasalarida 2000-yilda 2548 nafar, 2010-yilda 2985 nafar pedagog-xodimlar mudira, uslubchi, tarbiyachi, musiqa rahbarlari va psixologlar ishladi, 2010-yilda Termiz davlat universitetini 50 nafar, Denov, Termiz kasb-hunar kollejlari 235 nafar talaba bitirib, shaharlardagi maktabgacha ta'lim muassasalariga ishga kelishdi[21.12]. Termiz, Denov, Sherobod shaharlaridagi maktabgacha ta'lim muassasalarini o'quv-uslubiy qo'llanmalar,

o'yinchoqlar, texnik vositalar bilan ta'minlash borasida ham ma'lum ishlar amalga oshirildi. Sho'rchi, Qumqo'rg'on, Boysun, Sharg'un shaharlaridagi 7 ta maktabgacha ta'lim muassasasi kompyuter bilan ta'minlandi. 2005-2010-yillarda Termiz, Jarqo'rg'on, Sherobod shaharlardagi 30 ta maktabgacha ta'lim muassasasida «Bolalarni rivojlantirish va maktabgacha tayyorlash tayanch dasturi» tajriba sinovdan o'tkazildi.

Respublika xalq ta'limi vazirligi tashabbusi asosida maktablarni kompyuter bilan ta'minlash borasida ham ancha ishlar bajarildi. Shahar maktablarini kompyuter bilan ta'minlash maqsadida 2000-2001 o'quv-yili boshlangunga qadar har bir shahar hokimliklari tomonidan homiyilar hisobidan bittadan maktabga kompyuter olib berildi. Maktablarda o'quvchilar bilimini sinashda an'anaviy usullar bilan birga test sinovlaridan o'tkazish tamoyili kengroq qo'llanildi. Mintaqaviy va Respublika miqyosida maktab olimpiadalari muntazam o'tkazib berildi. Termiz shahrida 1996-yilda faoliyat ko'rsatgan 14 ta umumta'lim maktabida 11200 nafar o'quvchi ta'lim olgan bo'lsa, 2000-2001 o'quv-yilida 16 ta umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar soni 14300 nafarga yetdi[16.11].

2000-2001-yillarda Termiz, Jarqo'rg'on, Sho'rchi, Boysun shahar ta'lim muassasalaridagi ta'mirga muhtoj kompyuterlarni sozlash bo'yicha amaliyishlar olib borildi. Shuningdek, shahar o'quvchilarining to'laqonli bilim olishlari uchun 557 ta fan o'quv xonalari, 35 ta lingafon xonasi qayta jihozlandi. 2008-2010-yillarda Sherobod, Qumqo'rg'on, Sharg'un, Boysun shahar ta'lim muassasalariga 2 million 250 ming so'mlik sport anjomlari, 210 ta parta, 580 ta yumshoq jihozlar olib berildi[18.15].

Mustaqillik yillarida shaharlarda ekologik muhitni yaxshilash borasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb masalarini hal etish yuzasidan xalq ta'limi sohasida ma'lum ijobiy ishlar qilinib, o'qituvchi va o'quvchilarga ekologik tarbiyani singdirish dolzarb masalaga aylandi. Ayniqsa bu borada Denov, Sho'rchi, Sariosiyo, Sharg'un, Qumqo'rg'on shaharlardagi maktablarda 1993-2010-yillarda ibratli ishlar amalga oshirildi. Shahar maktablarida ekologik tarbiya, tabiat va uning boyliklari, Yevropa mamlakatlari va Yaponiya tabiatni muhofaza qilish madaniyati, Alyumin zavodidan chiqayotgan zaharli ftor gazi, uning oqibatlarini, ichimlik suvi, Orol dengizi fojiasi, o'simliklar hamda hayvonot dunyosini saqlash kabi turli mavzularda suhbatlar, uchrashuvlar tashkil etildi. 2000-2005-yillarda Denovda 455 ta, Sho'rchida 358 ta, Sharg'unda 365 ta, Sariosiyoda 465 ta turli mavzularda ekologik tadbirlar o'tkazildi[5.2]. Mustaqillikning dastlabki yillarida ta'limning barcha o'quv fanlaridagi milliy mafkuraga zid bo'lgan g'oyalar o'quv dasturi va darsliklaridan chiqarib tashlandi. Ta'lim mazmuniga mamlakatning milliy g'oyalari singdirildi, o'quv reja va dasturlariga o'zgartirishlar kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 27 dekabrda «Termiz shahrining 2500-yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida»gi 545- sonli qarori ko‘hna shahar va uning aholisining xizmatlari e’tirof etilganining namunasi bo‘ldi[6.2]. Surxondaryoning iste’dodli ustalari, musiqachilari, shoirlari, qo‘shiqchilari, raqqosalarining madaniyati, yuksak ma’naviyati, ijodiyoti ana shu davrda yashagan ajdodlarning tarixiy-madaniy merosiga borib taqaladi.

Mustaqillik yillarida Termiz shahri turli tadbirlar o‘tkaziladigan markazga aylanib bordi. Bu yerda-yilida ikki bor Markaziy Osiyo baxshi-shoirlar hamda oqimlarining xalqaro festivali o‘tkazildi. Termiz shahri teatri va madaniyat markazida O‘zbekiston xalq rassomi Ro‘zi Choriyev, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi M. Ravshanov, O‘zbekiston xalq baxshilari Sh. Boltayev va A. Poyonov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi A. Ibrohimov, O‘zbekistonda xizmat qo‘rsatgan artistlar G.Ravshanova, R.Mamataliyev, H.Oripov, M.Maxmudova, A.Narzullayev, Y.Mirqurbonov, S.Qosimova, N.Allanazarovlar voyaga yetganlar. Boysun shahrida «Boysun bahori» xalqaro folklor-etnografik festivali o‘tkazilib borildi. 1999-yil Termiz shahrida «Alpomish» dostonining 1000-yilligi, 2002-yilda Termiz shahrining 2500-yilligi xalqaro miqyosda nishonlandi[7].

2010-yilda Termiz shahridagi viloyat musiqali drama teatrida 106 nafar san’atkor va ishchi-xodim samarali mehnat qildi, ularning xizmatlari xalqimiz va hukumatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. Jamoa a’zolaridan 2 nafari «O‘zbekiston xalq artisti», 1 nafari «O‘zbekiston san’at arbobi», 8 nafari «O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist», 1 nafari «O‘zbekistonga xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi» faxriy unvonlari bilan mukofotlandi. Jamoaning faol a’zolaridan katta guruhi O‘zbekiston orden va medallari bilan taqdirlandi. Jamoa ezgulik yo‘lida fidokorona kamtarona mehnat bilan band bo‘lib, xalqimiz hurmatini qozonib kelmoqda[8].

1997-yil O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Surxondaryo viloyatda madaniy-oqartuv muassasalari faoliyatini takomillashtirish va yanada yaxshilash bo‘yicha 358-sonli qaror qabul qildi. Qarordan kelib chiqib, viloyatda madaniyat sohasida katta ijobiy ishlar qilindi. Masalan, Boysun shahrida 14 ta ommaviy va bolalar kutubxonasi, 12 ta klub muassasalari, 1 ta madaniyat uyi, 400 o‘rinli kinoteatr «Alpomish» sport majmuasi, zamonaviy asosda qurilgan tennis korti, san’at muzeyi[9], «Shalola» ashula va raqs xalq ansambli, «Boysun» folklor-etnografik bolalar ansambli, «Shirushakar» folklor-etnografik ansambli, «Alpomish» dostoni yaratilganligini ming yilligi munosabati bilan sport inshootlari va yigirma besh gektar maydonda «Alpomish bog‘i» barpo etildi, «Boysun bahori» folklor festivali har-yil may oyida muvaffaqiyatli o‘tkaziladi[10].

Termiz shahrining 2500-yillik yubileyi munosabati bilan 2001-2010-yillarda Termiz, Denov, Sherobod shaharilardagi bir qancha tarixiy obidalar va arxeologik yodgorliklarda ta'mirlash ishlari olib borildi. Surxondaryo viloyatidagi yodgorliklar o'zining qadimiyligi bilan mashhur. Termiz shahrida Termiz hayvonot bog'i, yoshlar majmui, xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar viloyat uslubiyat markazi bor. Shuningdek, 4 ta xalq drama teatri, 2 ta qo'g'irchoq xalq teatri, 10 ta ashula va raqs dastasi, 6 ta folklor-etnografik xalq dastasi, milliy dorbozlar guruhi va boshqa madaniy muassasalar ishlab turibdi. Jumladan, Boysun shahridagi «Shalola», Sho'rchi shahridagi «Kumush tola» ashula va raqs xalq dastalari Buyuk Britaniya, Turkiya, Afg'oniston va Hindistonda bo'lib o'tgan xalqaro festivallarda ishtirok etishgan[11]. Termiz shahrining 2500-yilligi munosabati bilan 2002-yil apereldan faoliyat ko'rsata boshlagan Arxeologiya muzeyi O'rta Osiyodagi eng yirik ma'naviy maskanlardan biri bo'lib, uning 9 ta asosiy zallarida 72 ming Surxondaryo viloyati yodgorliklari va san'at namunalarini yuksak did bilan jihozlangan[1.5]. Shuningdek, Surxondaryo o'lkashunoslik muzeyi 2000-yil qayta jihozlangan binoga ko'chirib joylashtirildi, ushbumuzey 1933-yilda tashkil etilgan muzeyda 12252 dona arxeologiyaga, 612 dona madaniy merosga, 70 dona tabiatga oid nodir manbalar saqlanmoqda[12].

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq aholi sog'ligini saqlash masalasida yangi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar amalga oshrildi. Ijtimoiy masalalar orasida aholi salomatligini saqlash, tibbiy muassasalar tizimini qayta o'zgartirish, shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishni kuchaytirish, zamonaviy bilimga ega bo'lgan tibbiy xodimlarni tayorlash alohida ahamiyatga ega bo'ldi. SSSR davrida Surxon vohasi tibbiyot xizmatiga kam mablag'lar ajratib, zamonaviy tibbiyot qurilishiga umuman e'tibor berilgan emas edi. 2012-yilda Davlat dasturiga asosan viloyatda 140 o'rinli davlat shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Termiz bo'limi tashkil etildi, hamda zaruriy tibbiy va texnik jihozlar bilan ta'minlandi. Termiz shahar sog'liqni saqlash bo'limi o'z faoliyatida AQShning Projekt Xoup, Karelift Interneyshnl, Kauntepart Interneyshnl tashkilotlari bilan uzviy aloqalar bog'lagan[13]. O'rganilayotgan davrda shaharlar aholisi sog'lig'ini saqlash borasida ham katta ishlar qilinib, yangi kasalxonalar qurib ishga tushirildi. Ularni zamonaviy tibbiyot asbob-uskunolari bilan ta'minlash yaxshilandi. Chet ellardan zamonaviy tibbiyot uskunolari olib kelib o'rnatildi. Shaharlarda mavjud kasalxonalar qayta ta'mirlanib, shifoxonalardagi o'rinlar soni 3495 taga yetdi. Jumladan, 1991-yilda Boysun shahrida 2 ta, Jarqo'rg'on shahrida 3 ta, Qumqo'rg'on shahrida 3 ta, Sherobod shahrida 2 ta, Sho'rchi shahrida 4 ta kasalxona faoliyat ko'rsatdi.[22.69] Shuningdek, Denov shahrida 630 ta, Sho'rchi shahrida 420 ta, Sherobod shahrida 520 ta, Qumqo'rg'on shahrida 530 ta, Jarqo'rg'on shahrida 570 ta, Boysun shahrida 320 ta davolash o'rinlari mavjud edi[23.285].

Shaharlar aholisini sogʻliqni saqlash zamonaviy davolash maskanlarini qurish, qayta taʼmirlash, davolash oʻrinlarini yangilash, xonalarni zamon talabi asosida jihozlash sohasida katta amaliy ishlar qilindi. Ayniqsa, 2010-yilga kelib, yangi tibbiyot asbob-uskunalarini chet ellardan olib kelib, oʻrnatib xalqqa tibbiyot sohasida yangi usullari bilan xizmat koʻrsatish yaxshilandi. Shaharlardagi davolash muassasalari va oʻrinlari soni 2010-yilda Denov shahrida 4 ta kasalxonada 470 oʻrin, Shoʻrchi shahrida 2 ta kasalxonada 470 oʻrin, Shoʻrchi shahrida 2ta kasalxonada 510 oʻrin, Sherobodda 2 ta kasalxonada 500 oʻrin, Qumqoʻrgʻonda 3 ta kasalxonada 520 oʻrin, Jarqoʻrgʻon shahrida 3 ta kasalxonada 545 oʻrinlar bor edi[22.69]. 2010-yilda viloyat aholisiga 91 ta kasalxona (shu jumladan, 85 tasi byudjet, 6 tasi byudjetdan tashqari boʻlib) shundan 5 tasi aholiga tibbiyot sohasida xususiy xizmat koʻrsatdi. Surxondaryo viloyatida zamonaviy tez tibbiy yordam hamda Ona va bola skrining markazi qurib foydalanishga topshirildi. Bundan tashqari viloyat aholisiga 345 ta quvvati bir smenada 19,4 ming qatnovga moʻljallangan vrachlik ambulatoriya-poliklinalari (shundan 51 tasi xususiy, quvvati bir smenada 1,7 qatnovga moʻljallagan) tibbiy xizmat koʻrsatildi. Barcha toifadagi tibbiy muassasalarda 4,5 ming nafar vrach, 16,1 ming nafar oʻrta tibbiy xodimlar aholiga xizmat koʻrsatdi[19.28].

Mustaqillik yillarida respublikada sportning turli xillarini rivojlantirishga ham erishildi, buning samaralari jahon miqyosida oʻtkaziladigan tennis, kurash va shaxmat musoboqalarida yaqqol koʻzga tashlanadi. Oʻzbekiston sportchilari maʼnaviy va jismoniy barkamollikning yuqori natijalariga erishib, qadimiy sport udumlari, urf-odatlarini qayta tikladilar. Sportni yanada rivojlantirish, sogʻlom va barkamol avlodni tarbiyalash yuzasidan qonun va qarorlar ishlab chiqildi. 1992-yil 14 yanvarda Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida «Jismoniy tarbiya va sport toʻgʻrisida»gi Qonun qabul qilindi[24.69]. Vazirlar Mahkamasi esa Oʻzbekistonda ommaviy va professional futbolni yanada rivojlantirish, uning moddiy bazasini mustahkamlash, futbolchilarning yangi avlodini tayyorlash va tarbiyalash, Vatan futbolining xalqaro nufuzini oshirish maqsadida, 1993-yil 17-yanvarda Oʻzbekistonda futbolni rivojlantirishning tashkiliy asoslari va tamoyillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida maxsus qaror qabul qilindi[3.487]. 1992-yil Termiz va Shahrisabz shaharlarida oʻtkazilgan xalqaro kurash musobaqalarida milliy kurash sohasi, at-Termiziy xotirasi va allomaning nomi bilan bu sport turi sifatida tiklandi. Natijada oʻzbek xalqining milliy kurashi xalqaro sport turiga aylandi. Bu milliy kurash turi boʻyicha musobaqalar har 2-yilda bir marta oʻtkazilmoqda.

1999-yilda esa Termiz shahrida jahonning xalqaro tennis talablariga javob beradigan yopiq Tennis saroyi va Milliy kurash zallari qurib ishga tushirildi. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 27 mayidagi «Oʻzbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari

to'g'risida»gi 271-sonli Qarori hamda «Sog'lom avlod-yili» kompleks rejasi asosida shaharlar xalq ta'limi bo'limlarida qator tadbirlar o'tkazildi[17.35].

Shu davrda shahar maktablarida 2010-yil 234, sport to'garaklarida 12500 o'quvchi-yoshlar sport bilan shug'ullandi. Masalan, Termiz shahrida 2 ta stadion, 8 ta futbol maydonchasi, 3 ta suzish havzasi, 2 ta tennis korti, 14 ta ochiq tennis, 19 ta voleybol, 14 ta basketbol maydonchalari hamda qo'l to'pi bo'yicha 10 ta maydoncha, boshqa sport inshootlari mavjud. Shaharda 17 tur bo'yicha 8 ta sport maktabi ish olib bordi. Ularning seksiyalariga 5925 nafardan ziyod o'quvchi muntazam qatnashdi[25.18]. Shaharda 27 mingdan ziyod kishi jismoniy madaniyat va sport bilan shug'ullanib, 5 mingdan ziyod shahar aholisi sport seksiyalariga qatnashdi. Bu ishda 200 professional mutaxassislar boshchilik qildi. Kurashning milliy turi bo'yicha al - Hakim at-Termiziy xotirasiga bag'ishlangan musobaqa hamda O'zbekiston Prezidentining sovrini uchun sportning shu turi bo'yicha xalqaro musobaqalar ilk bor Termizda o'tkazilgani quvonarli holdir. 1999-yilda Termizda o'tkazilgan xalqaro turnirga Osiyo nomi berildi[4.72].

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, urbanizatsiya jarayonlarini ilmiy tahlil etish jarayonida shaharlarning madaniy va ma'naviy qiyofasi mustaqillik imkoniyatlari tufayli tubdan o'zgarganligi amalga oshirilgan islohotlar natijasi ekanligi asoslab berildi. Chunki sovet hokimiyati davrida, butun respublikada bo'lgani kabi, Surxondaryo viloyatida ham maorif, madaniyat yo'nalishi mustabid tuzum nazoratida bo'lib, ushbu sohada erishilgan natijalar faqat Markazning ko'rsatmasi asosida amalga oshirilar edi. Sovet hokimiyati davrida shaharlar madaniyatining hamma sohalaridagi tadbirlar yagona "partiyaviylik" qolipi asosida tashkil etilar, mahalliy aholining milliy diniy qadriyatlari nihoyat darajada kamsitilgan edi. Natijada O'zbekistonda jumladan, Surxondaryo viloyatida "shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat" shiori asosida sovetlarning madaniy siyosati niqoblanib, milliy madaniyatni yevropalashtirish g'oyasi asos qilib olingan edi. Shaharlardagi maktab o'qituvchilarining ma'naviy qiyofasi, bilim darajasi hamda tajribalari jahon ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etildi. Ushbu davrda oliy ta'lim tizimi, ilmiy markazlar, madaniy muassasalar faoliyati shaharlarda to'liq mustaqillik tufayli zamonaviy asosda tashkil etildi. Shahar aholisining turmush tarzi eng muhimi, sog'liqni saqlash, aholi yashashi uchun sog'lom muhitni yaratish borasida amalga oshirilgan o'z natijalarini bera boshladi. Ushbu sohaning to'liq va har tomonlama jahon andozalari asosida ta'minlanganligi, zamonaviy davolash muassasalari, tibbiyot asbob-uskunalari, tashxis markazlari bilan jihozlanganligi qator muammolarning yechimini topishda muhim ahamiyat kasb etdi. Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatining zamonaviy me'morchiligi shakllandi, ular juda chiroyli, shinam, ozoda tus oldi, aholi istiqomati uchun barcha qulayliklarga ega bo'ldi. Shaharlarda o'nlab san'at saroylari, istirohat

bog'lari, sport inshootlari, bolalar maydonchalari, faoliyat ko'rsatayotganligini, bu faoliyat samarali kechayotganligi, shaharlarning zamonaviy qiyofaga kirganligini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Botirov.T., Annayev.T. Surxondaryo viloyati arxeologiya muzeyi (qisqacha yo'llanma).–Toshkent: Sharq, 2002.–B.5.
2. Kenjaboyev S. Maktab va kelajak. – Termiz, 2000.– B. 20.
3. Mustaqil O'zbekiston tarixi, uchinchi kitob. –Toshkent: Sharq, 2000. –B.487.
4. Termiz buyuk yo'llar chorrahasidagi ko'hna va yangi shahar. –Toshkent: Sharq, 2001.–B.72.
5. Surxon tongi. Ekologik tarbiya – inson salomatligi. 2006-yil. 23-fevral. №7. B.2.
6. O'zbekiston Respublikasi Milliy Davlat arxivi. 7-fond, 1-ro'yxat, 3-hujjat, -B.2.
7. O'zbekiston Respublikasi Milliy Davlat arxivi 7-fond, 1-ro'yxat, 232-ish, 3-21-23-24-varaqlar.
8. O'zbekiston Respublikasi Milliy Davlat arxivi 7-fond, 1-ro'yxat, 232-hujjat, 7-varaq.
9. O'zbekiston Respublikasi Milliy Davlat arxivi 7-fond, 1-ro'yxat, 232-ish, 8-9-10-varaqlar.
10. O'zbekiston Respublikasi Milliy Davlat arxivi 7-fond, 1-ro'yxat, 232-ish, 19-20-21-23-varaqlar.
11. O'zbekiston Respublikasi Milliy Davlat arxivi I. 7-fond, 1- ro'yxat, 232-ish, 24-25-26-varaqlar.
12. O'zbekiston Respublikasi Milliy Davlat arxivi I. 7-fond,1-ro'yxat, 1205-ish, 1-2-3-varaqlar.
13. O'zbekiston Respublikasi Milliy Davlat arxivi I. 7-fond, 1- ro'yxat, 1160-ish, 25-varaq.
14. Surxondaryo viloyat davlat arxivi 1-fond, 18-ro'yxat, 1-ish, 41-varaq.
15. Surxondaryo viloyat davlat arxivi 313-fond, 1-ro'yxat, 12-ish, 33-varaq.
16. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 45-fond. 2-ro'yxat. 28-ish, 11-varaq.
17. Surxondaryo viloyat davlat arxivi 80-fond, 1- ro'yxat, 57-ish, 35-varaq
18. Surxondaryo viloyat hokimiyatining joriy arxivi 2011-yil yanvar 1-bayonnoma. –B.15.
19. Surxondaryo raqamlarda. Surxondaryo viloyati statistika bosh boshqarmasi.– Termiz, 2010. – B.28.
20. Surxondaryo viloyati hokimligi va statistika bosh boshqarmasi. №-1 kitob, 1991-2002 y. – Termiz, 2004. – B. 18.

21. Surxondaryo viloyati statistika bosh boshqarmasi. №-1 kitob, 2000-2010 y. – Termiz, 2011. – B. 12.
22. Surxondaryo viloyati statistika bosh boshqarmasi 2011-yil. .№-1 kitob, 1991-2011. –Termiz,-B. 69.
23. Surxondaryo viloyati hokimligi va statistika bosh boshqarmasi. 1991-2002 y. – Termiz, 2004.–B.285.
24. Surxondaryo viloyati statistika bosh boshqarmasi 1993-yil. 12.02. 69 b.
25. Termiz shahar hokimiyati joriy arxivi 2011-yil. 3-bayonnoma. –B.18.

